

MUHAMMADRIZO OGAHINYING “BO‘LMASA BO‘LMASUN, NETAY” G‘AZALIGA PSIXOLOGIK TAHLIL

O‘rozaliyeva O‘lmasoy Kubay qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammadrizo Ogahiy qalamiga mansub "Bo'lmasa bo'lmasun, netay" nomli radifli g'azaliga psixologik izoh berilgan. Undagi shoir shaxsi xususiyatlari, qo'llanilgan himoya mexanizmlari va empatiya bilan bog'liq muhtojlik holatlari tahlil qilingan. Bu orqali o'quvchiga ham psixologik, ham tarixiy, ham badiiy va qolaversa, axloqiy bilim va ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: himoya mexanizmlari, empatiya, ehtiyoj, motiv, emotsionallik.

Adabiyot gulshanida gul-u bulbullar serob. Har biri o'z tarovati va xonishiga ega. Muhammadrizo Ogahiy adabiyotimizning o'chmas shamchirog'I, qaynab bitmas bulog'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Adib she'riyatidagi ma'no nafaqat badiiy, tarixiy, axloqiy va eng qiziqarli jihati psixologik ahamiyatga ega. Adabiyotga oshno bo'lmagan qalb kemtik bo'ladi. Muhammadrizo Ogahiyning "Bo'lmasa bo'lmasin, netay" radifli g'azali misolida bir qancha psixologik jarayonlarni tahlil etamiz. Bu orqali o'quvchiga Muhammadrizo Ogahiy ijodini tanitish bilan birga psixologik bilimlarni yaqqol misollar tariqasida ko'rsatishga harakat qilamiz. "Bo'lmasa bo'lmasin, netay" radifli g'azalini bandma-band ko'rib chiqamiz, tahlil qilamiz.

“Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay,

Ohima hech shumora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.”

Bu band shoirning ichki iztirobini ochib beradi. Ko'z yoshlari va oh-nolalar cheksizligi affektiv zo'riqishni bildiradi. Bu kata emotsional bosim ostidagi holat hisoblanadi. Radif — “bo'lmasa bo'lmasun, netay” — shoirning o'zini tinchlantirish mexanizmi sifatida ishlaydi. U dardni inkor qilmay, balki qabul qilish orqali yengillik topishga intiladi. Bu holat psixologiyada emotsional koping strategiyasi sifatida qaraladi. Ya'ni u stressni yengish maqsadida moslashuv jarayonini amalga oshiradi, “taqdirga tan beradi”.

Hardam ulusg'a lutf ila boqq'usi qahr ila, vale

Man sori bir nazora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Shoir bu bandda ijtimoiy solishtirish va rad etilishni ifodalaydi. Sevgilining boshqalarga mehribon bo'lishi, lekin unga e'tibor bermasligi

shaxsda o'zini past baholash va ruhiy ranjish uyg'otadi. Ijtimoiy solishtirish jarayoni shaxsning murakkab ichki kechinmasi, hisob-kitobi, salbiy yoki ijobiy tuyg'ularning boshlanish nuqtasi bo'lib, shoir bu yerda o'ziga yetarli darajada ichki motivatsiya ololmayapti, "ko'ngli cho'kmoqda". Radif bu jarayonda shoirning ichki himoya mexanizmi bo'lib, dardni qabul qilish orqali psixologik barqarorlik yaratadi. Ya'ni Freyd nazariyasidagi ratsionalizatsiya himoya mexanizmi orqali, shoir psixikasini himoya qilmoqda.

Ishq eli ko'ngli dardig'a chora qilur, vale mening

Dardi dilimga chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Bu bandda shoirning yolg'izlik va tushunilmaslik hislari kuchli. Boshqalarning dardiga yordam bor, lekin shoirning dardi "davolanmaydi". Psixologik nuqtai nazardan bu emosional izolyatsiya va o'rganilgan ojizlik belgisidir. Bu jarayonda introvert shaxsining xususiyati namoyon bo'lmoqda. Shaxs o'z muammosini hal qila olmayotganini anglaydi. Bu undagi g'am yukini yanada og'irlashtirmoqda. Yana o'zini ovutish va psixik buzilishlardan himoyalash uchun "bo'lmasa bo'lmasin, netay", demoqda.

Hajrida za'fim o'ylakim, ohi hazinim o'tig'a,

Shu'la bila sharora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Hijron shoirni ruhan va jismonan zaiflashtirgan. Ammo bu zaiflik portlovchi affektga emas, balki sokin, ichki iztirobga aylanadi. Psixologiyada bu emotsional charchoq, befarqlik bilan izohlanadi. Shoir ichki kuchini yo'qotgan, ammo dard bilan yashashni qabul qilgan.

Jon labidin chu bermadi jismima, vahki qoshidin

Qatlima bir ishora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Shoir sevgilidan hech qanday belgilar ololmaydi. Bu ambivalent holat — shaxsning ikki qarama-qarshi ehtiyoj o'rtasida qolishini bildiradi. Psixologiyada bunday vaziyat ichki ziddiyat va ruhiy bosimni yuzaga keltiradi. Radif orqali shoir bu iztirobni qisman yumshatadi.

Ko'yiga borsam etgusi vaslig'a va'da, ul dog'i

Bo'lg'usi bora-bora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Bu band shoirda soxta umid va rejalashtirilmagan kutish holatini ko'rsatadi. Va'dalar beriladi, ammo ular bajarilmaydi, natijada shaxsda umid–umidsizlik sikli paydo bo'ladi. Frustratsiya aynan mana shu holatda namoyon bo'ladi. Radif shoirning bu sikldan chiqish va ruhiy barqarorlikni saqlash usuli sifatida xizmat qiladi.

Toleyi ravshan o'zganing lutfi quyoshi nuridin,

Men kibi baxti qora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Shoir o'zini boshqalar bilan solishtirib, pessimistik tafakkurni ko'rsatadi. Bu holat negativ kognitiv sxema bilan bog'liq bo'lib, shaxs o'zini doim yutqazuvchi sifatida qabul qiladi. Bu orqali javobsiz tuyg'ular inson ruhiyatini

buzishi, fikr radiusini o'zgartirishi va kishini hayotdan bezdirishi oqibat sifatida qaraladi. Radif esa ichki psixologik himoya va qabul qilish strategiyasi sifatida ishlatiladi.

Bo'ldi sitorasi isiq xulqg'a mehr yor karam,
Manda isiq sitora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Shoir o'zini mehr va e'tibordan mahrum his qiladi. Psixologiyada bu holat emosional ochlik yoki sezgi yetishmasligi deb talqin qilinadi. Ammo yana bir jihatdan Erik Bern nazariyasidagi bola pozitsiyasini namoyoni ko'rinmoqda. Demak ishq insonni bolalarcha beg'ubor xarakterda ojiz qiladi. Radif bu holatni qabul qilish va ruhiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Dedim o'lubtur Ogahiy ashki kanorasiz, dedi:
Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Shoir o'ziga o'zi murojaat qiladi, ichki dialog orqali o'z holatini anglaydi va qabul qiladi. V.Vuntning mashhur metodi introspeksiya namoyon bo'lmoqda. Bu — shaxsning iztirobini inkor qilmasdan, balki uni psixologik himoya va chidamlilik mexanizmi sifatida tan olishini ko'rsatadi. Bu yerda iroda sifatleri ko'rinadi. Muhammadrizo Ogahiyning “Bo'lmasa bo'lmasun, netay” radifli g'azali nafaqat ishqiy iztirob mahsuli, balki inson ruhiyatida kechadigan stress, yo'qotish va moslashuv jarayonlarining badiiy modelidir. G'azalda shoirning kechinmalari oddiy shikoyat darajasida emas, balki psixologik jarayonlar izchil rivoji sifatida namoyon bo'ladi. G'azalning har bir bandida affektiv zo'riqish kuzatiladi: ko'z yoshlari, oh-nolalar, hijron va umidsizlik shoirning hissiy tizimini haddan tashqari zo'riqtiradi. Biroq bu zo'riqish shoirni ruhiy yemirilishga olib bormaydi. Aksincha, u radif — “bo'lmasa bo'lmasun, netay” orqali bu holatni ongli ravishda qabul qiladi. Bu jarayon zamonaviy psixologiyada emotsional koping deb ataladi. Shoir vaziyatni o'zgartira olmagan holda, o'z hissiy munosabatini boshqarishga urinadi. G'azalda ijtimoiy solishtirish mexanizmi ham muhim o'rin tutadi. Shoir o'zini boshqalar bilan qiyoslab, ularning baxti va e'tibori bilan o'zining mahrumligini taqqoslaydi. Bu holat shaxsda past o'zini baholash va pessimistik kognitiv sxemani kuchaytiradi. Shu bilan birga, shoir bu solishtirishdan chiqish yo'lini yana qabul qilish strategiyasida topadi. Alohida e'tiborga molik jihat shundaki, g'azal davomida shoir o'rganilgan ojizlik holatiga yaqinlashadi: u dardiga chora yo'qligini tan oladi. Ammo bu ojizlik passivlik emas, balki ruhiy moslashuvning bir shaklidir. Shoir dardni inkor etmaydi, uni shaxsiyatining bir qismi sifatida qabul qiladi. Maqta'da Ogahiyning o'zi bilan olib borgan ichki dialogi shaxsning ruhiy yetuklik darajasini ko'rsatadi. Bu dialog orqali shoir o'z iztirobini anglaydi, nomlaydi va unga munosabat bildiradi. Bu jarayon psixologiyada o'z-o'zini anglash va emosional integratsiya sifatida talqin

qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, “Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay” g‘azali Ogahiy ijodida insonning ichki olami, ruhiy chidamliligi va hissiy moslashuvini ifodalovchi yetuk asar hisoblanadi. Ushbu g‘azal orqali shoir ishqiy kechinmalarni emas, balki inson psixologiyasining universallashtirilgan holatlarini badiiy shaklda yoritadi. Shu jihatdan g‘azal psixologiya va adabiyot kesishgan nuqtada turuvchi, zamonaviy ilmiy tahlil uchun muhim manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ogahiy M.R. Devon. — Toshkent: Fan, 1972.
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
3. Davletshin M.G. Psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Raxmonov A.R. Stress va uni yengish yo‘llari. — Toshkent: Fan, 2016.